

*Nizomiy nomidagi TDPU*

*Tarix fakulteti Tarix yo'naliishi*

*4-bosqich talabasi*

***Xokimova Gultabassum***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Farg'ona vodiysining tarixi, madaniy marifiy hayoti, iqtisodiy holati va arxeologiyasini o'rganishda shu kungacha olib borilgan ilmiy amaliy ishlari, ularning natijalari, ular yozgan asar va tadqiqotlarining bugungi kunda o'rganilishi va ahamiyati borasida fikr mulohazalar bayon etilgan.

**Kirish:** Farg'ona vodiysining tarixi juda qadim davrlarga borib taqalib uning tarixini o'rganish to bugungi kungacha davom etib kelmoqda. F tarixini o'rganishda arxeologik qazishma ishlari va ekspeditsiyalarning o'rni beqiyos. Ushbu ekspeditsiyalarning natijalari bugungi kunda vodiyligi tarixi va arxeologiyasini organishda asos bo'lib hizmat qiladi muhim hisoblanadi. Shunday ekspeditsiyalardan biri 1885-yil fevral oyida rus arxeologi, shargshunos Nikolay Ivanovich Weselovskiy tomonidan amalga oshirildi. U gabr toshlardan yasalgan Mukxona (Mukovlar uyi) ni birinchi bolib qadimiyligi qabrlar sifatida aniqladi va tavsiflab berdi. Ivanovich organgan kurumlarning umumiyligi sonidan faqat beshtasi saqlanib qolgan. Bulardan tashqari ekspeditsiya loy idishlar, tosh eshaklar va temir pichoqlar; ko'pburchak gabrlar, va dumaloq metall oyna kabi bronza asboblarni topgan. Shuningdek, Veselovskiy uchta qadimiyligi poytaxt - Axsi, Koson va O'zgan xarobalarida qazish ishlari olib borgan. O'shda Sulaymon tog'ida arab yozuvini topdi va uni tarjima qilishga erishgan.

Axsida N.I.Veselovskiy qabristonning besh joyida qazish ishlari olib borgan va shisha buyumlarning parchalarini, singan loy chiroq va suv quvurlarini, juda kam saglangan temir buyumlarining parchalarini, temir pichoqlarni, odamlarning bosh suyaklarini topdi. Bu yerda joylashgan binolar qoldiqlaridan,

ikki qator devorning burchagini aniqladi, ular oltita qatorda pishirilgan va po'latdan yasalgan g‘ishtlardan iborat bo‘lib, bir qatorda aylanib turar va katta kvadrat g‘isht bilan yotqizilgan edi. Yana birida, qizil bo‘yoq bilan bo‘yalgan pishiq g‘ishtdan qurilgan va loy massasi bilan bog‘lab qo'yilgan 10 gatorli pishiq g‘ishtdan qilingan devor topildi So'nggi qismda juda ko'p suv quvurlari, uchta mis tanga, ko'zadan shisha tutqich va kuygan g‘ishtning devori topilgan va ochilgan Kosonda Veselovskiy qadimiy qal'ada qazish ishlarini olib bordi, g‘isht devorlarini va mis tanga topdi. Sulaymon tog'idagi O'shda u arab yozuviningmilodiy 941-yil yozuvini topib tarjima qilgan Xususan, N.I.Veselovskiy Farg'ona shimolidagi qadimiy qabristonlarda 30 ga yaqin tosh qal'alarini o'rgangan. U rahbarlik qilgan ekspeditsiyaning yana bir xizmati O'rta Osiyoda birinchi bolgan Farg'ona vodiysida sug'orish tarixini o‘rganishni boshladi va kelajakda ushbu sohaning ahamiyatini tikidladi. Yana bir ekspeditsiya 1930-yil Farg'ona ekspeditsiyasi juda katta ahamiyatga ega. 1930, 1933-1934-yillarda B. A. Latinin rahbarligida ishlagan bu ekspeditsiya Farg'ona vodiysida (Qo'qon-So'x, Xaqulobod-Uchqo'rg'on - Namangan) daryo bo'ylarida qazishma ishlarini amalga oshirgan. O'zbekiston hududining Uch-Qo'rg'on dashtlarida va daryo bo'ylarida tadqiqotlarini amalga oshirgan. Farg'ona vodiysida ilk o'rta aslar davri areologiyasi masalasini birinchi marta yirik farg'onashunos B.A. Latinin tomonidan ushbu ekspeditsiyada ko'tarilganligi ham uning ahamiyatini oshiradi. Olib borilgan arxeologik ishlar natijasida ushbu olim vodiy madaniyati tarixida to'rtta rivolanish bosqichini ajratib ko'rsatgan o'tadi. Ulardan III-IV bosqichlar o'rta astlarni qamrab oladi" Keyinroq, 1961-yili bu davriy jadvalni yangi materiallar bilan boyitdi va qadimgi dehqonchilik madaniyatlarini materiallarini uch bosqichga bo'ldi. O'rta aslar bosqichi Farg'ona III yoki ilk feodalizm deb nomlanib, V-VIII aslar bilan sanalansada, davriy bosqichlarga ajratilmagan. Ammo B.A. Latinin ilk o'rta aslar davrini umumiy tarzda ta'riflab bera oldi. Shu bilan birga ushbu davrlashtirish ayrim kamchiliklardan holi emas, bular qatoriga materiallar kamchiligi oqibatida vujudga kelgan sxematizmni Keltirib o'tish mumkin. Shunga qaramay B.A. Latinin Farg'ona tarixida birinchi bor ilk o'rta astlar kompleksini alohida ko'rsatib uni o‘rganishni boshlab berdi .1932-1933-

yillari Namangan viloyatining Uchqorgon tumanida, Norin daryosiga elektrostansiya qurish tayyorgarligi munosabati bilan, Latinin Fargona vodisining shimoli-sharqiy rayonlarida arxeologiya razvedkalarini o'tkazdi". Kech bronza davridagi O'rta Osiyo yodgorliklarini o'rganishda muhim yo'nalishlardan biri bu Farg'ona vodiysida joylashgan aholi punktlari va qabristonlar majmuasi bo'lgan Chust madaniyati Farg'ona vodiysi O'rta Osiyodagi eng boy qishloq xo'jaligi vohalaridan biridir. Ushbu yillarda ekspeditsiya Eylatan qadimiy shaharchada arxaik bo'yalgan sopol buyumlarni ham topdi. Umuman olganda Farg'ona tarixi qadimgi davrlarga borib taqalishib u davlatchiligidan tarixida ham muhim hisoblanadi. Aynan shunday hulosalarni ko'plab olimlar takidlashgan. Hususan akademik A.Asqarovning ilmiy fikriga ko'rarkana (Farg'ona), Bagriya davlatlari ham 2800-3000 yil ilgari yuzaga kelgan deb ilmiy hulosalar bergen. Bunga sabab eng qadimgi davlatchiligidan tarixida muhim o'rinnegi egallagan Davan davlati borasidagi arxeologik qazishmalar natijasidandir. Mil.avv. III ast o'rtalarida, ya'ni 250-yilda Baqriya va Parfiya Salavkiylar davlati tarkibidan ajralib chigadi va Yunon-Baqriya deb ataladi.

A. Makedonskiydan keyingi davlarda, ya'n mil. av. 3 astlarda Markaziy Osiyoda bir qancha davlatlar tashkil topadi Ular quyidagilar: Dovon davlati - mil.av. III asrdan to milodning II asrlarigacha mavjud bo'lga. Uning hududi hozirgi Farg'ona vodiysi bo'lib, Andijon va Namangan han kirgan. Bu davlat tarixi ko'proq Xitoy manbalarida uchraydi, uning boshga ataladigan nomlar - Parkana, Boxon, Polona bolgan. U o'zining uchqur samoviy otlan va vinosi bilan mashhur bo'lgan. Xitoyliklar bu davlatga tez-tez huj um gilib turgan va har gal ularni samoviy otlar bilan o'lpon to lashga majbur etgan. Bu davlatning iqtisodiy asosini bog'dorchilik, yilgichilik, dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo tashkil etgan. Dovon davlatining poytaxti Ershi shahri bolib, u hozirgi Andijon viloyatining Mahamat tumaniga to'g'ri keladi. Uning Uchgo'rg'on, Sho'rakashar kabi shaharlari mavjud bo'lgan.

**Xulosa** qilib aytganda, Farg'ona vodiysi tarixi juda qadimgi davrlarga hatto ibridoiy davrlarga borib taqalishi yuqoridagi malumotlardan ko'rinish turibdi. Hududning arxeologiyasini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etgan arxeologik

ekspeditsiyalarning aksariyati natijalari e'lon qilinmay qolganligi sababli vodiy tarixini o'rganishda ba'zi muammoli holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Ammo turli davrlarda nashr etilgan tadqiqotlar orasida ushbu ekspeditsiyalarning maqsadi, tarkibi, Farg'ona vodiysi arxeologiyasi va tarixidagi ba'zi bo'sh bo'g'lnlarni to'ldirishi mumkin. Lekin shunday bo'lishiga qaramasdan biz vodiy hududi haqidagi ma'lumotlar va manbalar haqda to'liq ma'lumotlarni haligacha qo'lga kiritganimiz yo'q, qo'lga kiritganlarimizni esa afsuski, hali to'liqligicha o'rganib tugatganimiz ham yo'q. Albatta bu o'rinda vodiy hududini o'rganishda tarixshunoslik xulosalasining berilishi muhim. Yuqorida qayd etib o'tilgan manbalar va ekspeditsiyalar erishgan yutuq va kamchiliklarni o'zaro qiyosiy tahlil etilishi esa nafaqat vodiy tarixi balki O'rta Osiyo areologiyasini rivolantirishda asosiy o'ringa ega ekanligini takidlasak xató bo'lmaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston zamonaviy tadqiqotlarida qo'qon xonligi davlatchiligi masalasi (tarixshunoslik tahlili) [Matn]: monografiya / J.J. Yakobjanov. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – 144 b.
2. Илҳомов З.А. Кўқон хонлиги тарихшунослигининг айрим масалалари. (тахлил ва мулоҳазалар). -Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2007. - 48 б
3. Воҳидов Ш.Х. XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошларида Кўқон хонлигига тарихнависликнинг ривожланиши. Тарих фан. док. ... дисс. – Тошкент, 1998. – 240 б
4. Исҳоқхон Тўра Ибрат. Тарихи Фарғона. “Мерос” туркумida. /Нашрга тайёрловчилар: Ҳ.Бобобеков, М.Ҳасаний. –Тошкент: Камалак, 1991. –Б. 266–327.